




2020- yil yanvar-dekabr




2020- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi


## Farg'ona viloyatida kichik tadbirkorlik

### Dastlabki ma'lumotlar

- 2020- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMdagi ulushi **67,9** %ni tashkil etdi.
- Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga **13,9** birlikni tashkil qildi.
- 2020- yilning yanvar-dekabrida **8,1** mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **20,3** foizga ko'p.



2020- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %da



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda 3515 ta, sanoatda 1884 ta, yashash va ovqatlanishda 696 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 496 ta, qurilishda 455 ta, axborot va aloqada 211 ta tashkil etilgan.

**Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning  
asosiy ko'rsatkichlari**

	O'lchov birligi	2019- y.	2020- y.	Farqi (+;-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	birlikda	29 300	36 117	6 817
Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	birlikda	6 712	8 073	1 361
<i>Kichik tadbirkorlikning ulushlari:</i>				
YaHM	%	68,3	67,9	-0,4
Sanoat	%	38,6	45,9	7,3
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%	97,0	95,5	-1,5
Investitsiya	%	63,6	59,8	-3,8
Qurilish	%	90,3	87,6	-2,7
Chakana savdo	%	88,0	89,2	1,2
Xizmatlar	%	72,2	70,0	-2,2
Yuk tashish	%	95,5	94,3	-1,2
Yuk aylanmasi	%	96,4	95,4	-1,0
Yo'lovchi tashish	%	94,5	96,6	2,1
Yo'lovchi aylanmasi	%	95,9	97,3	1,4
Eksport	%	53,4	57,4	4,0
Import	%	77,4	73,8	-3,6



**2020- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik  
subyektlarining YaHM va iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari, %da**

**YaHM**  
67,9%

**Savdo**  
89,2%

**Sanoat**  
45,9%

**Qurilish**  
87,6%

**Investitsiya**  
59,8%

**Export**  
57,4%

**Xizmatlar**  
70,0%


**Import**  
73,8%

### Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

	2019- yil yanvar-dekabr	2020- yil yanvar-dekabr	farqi (+;-)
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>6 712</b>	<b>8 073</b>	<b>1 361</b>
Farg'ona sh.	1061	1123	62
Qo'qon sh.	802	828	26
Quvasoy sh.	229	324	95
Marg'ilon sh.	650	665	15
<i>tumanlar</i>			
Oltiariq	387	417	30
Qo'shtepa	204	277	73
Bag'dod	245	387	142
Bivayda	318	418	100
Beshariq	204	342	138
Quva	406	415	9
Uchko'prik	324	350	26
Rishton	260	353	93
So'x	92	190	98
Toshloq	274	394	120
O'zbekiston	314	395	81
Farg'ona	330	342	12
Dang'ara	333	389	56
Furqat	154	235	81
Yozyovon	125	229	104



**2020- yil yanvar-dekabrda yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi. %da**



2020- yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Farg'ona shahri – 13,9 %, Qo'qon shahri - 10,3 %, Marg'ilon shahri – 8,2 %, Oltiariq tumani - 5,2 %, Buvayda tumani - 5,2 %, Quva tumani - 5,1 %, Toshloq tumani - 4,9 %, O'zbekiston tumani – 4,9 % hissalari to'g'ri keldi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan  
kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda**

	2019- y. yanvar-dekabr	2020- y. yanvar-dekabr	farq. (+;-)
<b>Jami</b>	<b>6 712</b>	<b>8 073</b>	<b>1 361</b>
<b>Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	267	496	229
<b>Sanoat</b>	1660	1884	224
<b>Qurilish</b>	493	455	-38
<b>Savdo</b>	3006	3515	509
<b>Tashish va saqlash</b>	260	193	-67
<b>Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar</b>	430	696	266
<b>Axborot va aloqa</b>	94	211	117
<b>Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish</b>	105	143	38
<b>Boshqa faoliyat turlari</b>	397	480	83

**Ma'lumot uchun:** 2020– yilning yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:




## Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori o'ringa ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda

	2019- yil yanvar-dekabr	2020- yil yanvar-dekabr	Farqi (+;-)
Farg'ona sh.	1061	1123	62
Qoq'on sh.	802	828	26
Marg'ilon sh.	650	665	15
Buvayda tumani	318	418	100
Oltiariq tumani	387	417	30
Quva tumani	406	415	9
O'zbekiston tumani	314	395	81
Toshloq tumani	274	394	120
Dang'ara tumani	333	389	56
Bag'dod tumani	245	387	142

2020- yilning yanvar – dekabrda yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi viloyat bo'yicha Farg'ona shahrida – 1123 tani tashkil etdi.



Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda






2020- yil yanvar-dekabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga nisbatan 13,9 birlikni tashkil etdi.



**Farg'ona viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-dekabr holatiga ko'ra\***




2020- yilning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Farg'ona shahrida 22,0 birlik, Qo'qon shahrida 18,7 birlik, Quvasoy shahrida 18,6 birlik, Marg'ilon shahrida 16,9 birlik, Dang'ara tumanida 16,3 birlik, Furqat tumanida 16,1 birlik, Quva tumanida 13,3 birlikni tashkil etgan. Beshariq tumanida esa ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib, 8,0 birlikka to'g'ri keldi.

\* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)




## 2020– yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)\*



\* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)



**2020- yilning yanvar-dekabrida har 1000 aholiga to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari soni eng ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda \***



2020- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga tuman va shaharlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Farg'ona shahrida 22,0 birlik, Qo'qon shahrida 18,7 birlik, Quvasoy shahrida 18,6 birlik, Marg'ilon shahrida 16,9 birlik, Dang'ara tumanida 16,3 birlik, Furqat tumanida 16,1 birlik, Quva tumanida 15,3 birlik, So'x tumanida esa 14,6 birlikni tashkil etdi.



**Faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)\***

**Eng yuqori ko'rsatkich**

- Farg'ona shahrida - 22,0 birlik.

**O'rtacha ko'rsatkich**

- Uchko'priq tumanida - 13,8 birlik.

**Eng past ko'rsatkich**

- Beshariq tumanida - 8,0 birlik.

\* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)






**Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushini pasayish dinamikasi, yanvar-dekabr holatiga ko'ra, %da**

2020- yilning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi **67,9** %ni tashkil qildi. (2019- yilning yanvar-dekabrda **68,3** %).

YaHMning o'tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan izohlanadi.



**Kichik tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi (umumiy hajmiga nisbatan %da)**



**2020- yilning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlikning hududlar kesimida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi, %da**

	<b>Sanoat</b>	<b>Qurilish</b>	<b>Xizmatlar</b>	<b>Investitsiya</b>
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>45,9</b>	<b>87,6</b>	<b>70,0</b>	<b>59,8</b>
Farg'ona sh.	16,2	92,5	55,6	33,9
Qo'qon sh.	28,6	78,9	70,3	57,0
Quvasoy sh.	22,4	78,5	77,3	32,4
Marg'ilon sh.	97,0	91,7	88,6	72,7
<i>tumanlar</i>				
Oltiariq	100,0	99,6	80,5	68,5
Qo'shtepa	52,4	67,7	81,9	27,1
Bag'dod	66,4	96,9	79,7	66,2
Bivayda	100,0	99,7	78,8	89,3
Beshariq	80,1	31,5	75,6	34,5
Quva	56,9	99,3	65,6	94,3
Uchko'prik	99,8	99,4	79,8	92,5
Rishton	68,5	98,6	67,4	67,4
So'x	100,0	98,7	82,2	27,4
Toshloq	22,6	99,3	78,7	91,9
O'zbekiston	78,0	99,6	79,0	95,8
Farg'ona	63,1	98,7	79,9	69,1
Dang'ara	100,0	95,1	80,0	94,0
Furqat	100,0	99,7	78,4	90,5
Yozyovon	100,0	54,6	84,4	52,8

Hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi eng ko'p:

**Sanoatda-**

Oltiariq (100,0 %),  
Buvayda (100,0 %),  
So'x (100,0 %),  
Dang'ara (100,0 %),  
Yozyovon (100,0 %) va  
Uchko'prik (99,8 %) tumanlarida.


**Qurilishda-**

Buvayda (99,7 %),  
Furqat (99,7 %),  
Oltiariq (99,6 %),  
O'zbekiston (99,6 %),  
Uchko'prik (99,4 %),  
Quva (99,3 %) va  
Toshloq (99,3 %) tumanlarida.


**Xizmatlarda-**

Marg'ilon sh. (88,6 %),  
Yozyovon (88,4 %),  
So'x (82,2 %),  
Qo'shtepa (81,9 %)  
Oltiariq (80,5 %)  
Dang'ara (80,0 %) va  
Farg'ona (79,9 %) tumanlarida.

2020- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 318,8 million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining 57,4 %ini tashkil etdi.




**Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, %da**




2020- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Buvayda, So'x, Furqat, Yozyovon, Bag'dod, Beshariq, Dang'ara tumanlari (100,0 %dan) va Marg'ilon shahrida – 98,9 %ni, eng past ko'rsatkich Toshloq tumanida – 14,4 %ni tashkil etdi.

2020- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot(ishlar va xizmatlar) importining hajmi **669,7** million AQSh dollarini yoki umumiy importning **73,8** %ini tashkil etdi.



**Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, %da**




2020- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Buvayda tumanida - 100,0 %, Uchko'prik tumanida - 100,0 %, So'x tumanida - 100,0 %, Dang'ara tumanida - 100,0 %, Furqat tumanida - 100,0 %, Yozyovon tumanida - 100,0 %ni tashkil etdi. Eng past ko'rstakich Qo'shtepa tumanida - 14,9 %ni tashkil etdi.




2020- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan 9916,6 milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.



## 2020- yilning yanvar-dekabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Uchko'prik tumani (1886,4 mlrd. so'm), Farg'ona shahar (1017,9 mlrd. so'm), Qo'qon shahar (932,2 mlrd. so'm), Marg'ilon shahar (863,2 mlrd. so'm) va Dang'ara tumani (574,0 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keladi. So'x tumanida (75,3 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.



2020- yil yanvar-dekabr oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 45,9 foizni tashkil etdi.



**2020- yil yanvar-dekabr holatiga hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, %da**




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Oltiariq tumani (100,0 %), Buvayda tumani (100,0 %), So'x tumani (100,0 %), Dang'ara tumani (100,0 %), Furqat tumani (100,0 %), Yozyovon tumani (100,0 %), Uchko'prik tumani (99,8 %) Marg'ilon shahar (97,0 %) Beshariq (80,1 %) va O'zbekiston (78,0 %) tumanlari tashkil etdi. Farg'ona shaharda (16,2 %) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.




2020- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 14075,1 mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining 89,2 %ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 101,7 foizni tashkil qildi.



## 2020- yilning yanvar- dekabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Farg'ona (2976,1 mlrd. so'm), Qo'qon (1905,8 mlrd. so'm), Marg'ilon (1404,1 mlrd. so'm) shaharlari, Qo'shtepa (949,1 mlrd. so'm), Quva (743,5 mlrd. so'm) va Uchko'prik (608,4 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.



2020- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 4457,9 milliard so‘mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 87,6 foizini tashkil etdi. O‘shish sur‘ati 2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 103,8 foizni tashkil qildi.




## 2020- yilning yanvar- dekabrda hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o‘shish sur‘ati




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Farg‘ona shahri (1159,0 mlrd. so‘m), Marg‘ilon shahri (712,8 mlrd. so‘m), Bag‘dod tumani (315,0 mlrd. so‘m), Qo‘qon shahri (282,9 mlrd. so‘m), Oltiariq tumani (192,9 mlrd. so‘m), Dang‘ara tumani (188,8 mlrd. so‘m) hamda Quva (187,8 mlrd. so‘m) tumanida qayd etildi.




2020- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan 9351,9 mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining 70,0 %ini tashkil qildi 2019- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 0,4 % pasayish kuzatildi.



## 2020- yilning yanvar- dekabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati





Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Farg'ona shahri (2574,5 mlrd. so'm), Marg'ilon shahri (1452,1 mlrd. so'm), Qo'qon shahri (1263,7 mlrd. so'm), Oltiariq (368,9 mlrd. so'm), Uchko'prik (354,7 mlrd. so'm), Buvayda (344,5 mlrd. so'm) va Farg'ona (310,8 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




2020- yil yanvar-dekabr oylarida avtomobil transportida yuk tashishining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 94,3 foizni tashkil etdi. 2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 101,2 foizni tashkil qildi.

2020- yil yanvar-dekabr oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 95,4 foizni tashkil etgan bo'lib, 2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 102,1 foizni tashkil qildi.



2020- yil yanvar-dekabr oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 96,6 foizni tashkil etib, bu esa 2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 6,6 foizga pasayishiga olib keldi.

2020- yil yanvar-dekabr oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 97,3 foizni tashkil etib, 2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 7,0 foizga pasayish kuzatildi.






Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2020-yil IV chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan taqdim etilgan oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi mavjudlari bo'yicha tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda **1316** ta respondentlar ishtirok etdi.



**2020-yil IV chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi\*, %da**




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 3,0 % (39 ta), sanoatda – 23,6 % (310 ta), qurilishda – 8,9% (117 ta) , savdoda – 35,9 % (473 ta), xizmatlar sohasida – 28,6 % (377 ta) ni tashkil etdi.


*\* oxirgi yillik statistik hisobotga muvofiq, mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumga ega bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha.*



**2020- yil IV chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi bo'lgan, kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda**




**2020- yil IV chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi bo'lgan kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da**



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2020- yilning IV choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra o'tgan yilning shu davriga nisbatan iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar ulushida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish korxonalarida 14,9 punktga va savdo korxonalarida 2,0 punktga pasayish kuzatildi.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda qurilish faoliyati 12,4 punktga iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar ulushining ko'payishi kuzatildi.

Joriy yilning IV choragida, o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 2,3 punktga, sanoat sohasida 5,9 punktga, qurilishda 2,5 punktga, savdo sohasida 2,3 punktga, xizmatlar sohasida 3,4 punktga iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining ko'payishi kuzatildi.



**Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2019-2020- yillar IV choragida iqtisodiy vaziyatini baholash, %da**


**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi**

**Sanoat**

**Qurilish**

**Savdo**

**Xizmatlar**




■ qulay ■ qoniqarli ■ qoniqarsiz

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2020- yil IV choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatni yaxshilanishiga ishongan korxonalar ulushi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish korxonalarida 3,5 punktga, savdo sohasida 0,8 punktga, xizmatlar sohasida 0,3 punktga kamaygan.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, qurilish korxonalarida 2,6 punktga, savdo sohasida 0,9 punktga, xizmatlar sohasida 1,5 punktga, yaqin uch oyda ularning iqtisodiy vaziyati o'zgarishsiz qolishiga ishongan korxonalar ulushi o'sdi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyat yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi qurilish sohasida 0,9 punktga oshdi.



### Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2019-2020- yillar IV choragida iqtisodiy vaziyatining yaqin uch oy uchun baholanishi, %da


Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

Sanoat

Qurilish

Savdo

Xizmatlar






2020- yilning IV choragi yakunlariga ko'ra yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati kuzatildi, unda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha **110** ta respondentlar qatnashgan. Shundan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 8 ta (ishtirok etgan respondentlar umumiy sonining 7,3%i), sanoat korxonalar – 26 ta (23,6 %), qurilish – 7 ta (6,4 %), savdo – 47 ta (42,7 %) va xizmatlarda – 22 ta (20,0 %) subyekt ishtirok etdi.




**2020- yilning IV choragi bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, %da**






2020- yilning IV choragi bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2020- yilning IV choragi bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, %da





Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra, 2020- yilning IV choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslaganda, iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar ulushida sanoat sohasida 3,8 punktga, savdoda 21,5 punktga va xizmatlar sohasida ham 21,5 punktga, iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar ulushining pasayishi kuzatildi.

Shu bilan birga, joriy yilning IV choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar ulushi sanoat sohasida 11,5 punktga, savdoda 13,1 punktga, xizmatlar sohasida 17,7 punktga oshgan.

Joriy yilning IV choragida, o'tgan yilning shu davri bilan qurilish sohasida 14,3 punktga, savdo sohasida 8,4 punktga va xizmatlar sohasida 3,8 punktga, iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining ko'payishi kuzatildi.



## 2019-2020- yillarning IV choragida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy vaziyatini baholash, %da


Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

Sanoat

Qurilish

Savdo

Xizmatlar



■ qulay ■ qoniqarli ■ qoniqarsiz

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati kuzatuv natijalariga ko'ra, 2020- yilning IV choragini o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda, yaqin uch oy ichida iqtisodiy vaziyati yaxshilanishiga ishongan korxonalar ulushi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi korxonalarida 16,7 punktga, qurilishda 3,7 punktga, savdoda 14,0 punktga, xizmatlar sohasida 24,4 punktga kamaygan.

Shuningdek, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, yaqin uch oydagi iqtisodiy vaziyat o'tgan yilga nisbatan o'zgarmaydi deb hisoblagan korxonalar ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi korxonalarida 16,7 punktga, qurilishda 3,6 punktga, savdoda 14,1 punktga, xizmatlar sohasida 24,4 punktga oshdi, sanoat korxonalarida esa 3,9 punktga kamaydi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyatni yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi korxonalarida 3,8 punktga, savdoda 0,1 punktga kamaydi.



## 2019-2020- yilning IV choragida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatini baholash, %da

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

Sanoat

Qurilish

Savdo

Xizmatlar

